



UDK:1:316.3:17

*Shuxratjon ORIPOV,*

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: shuxrat.orif@gmail.com*

*TMCi insituti professori falsafa anlari doktori F.Musayev taqrizi asosida*

### MA'NAVY BARKAMOLLIK: FALSAFIY ASOSLAR, TARIXIY TARAQQIYOT VA ZAMONAVIY INTERPRETATSIYALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'naviy barkamollik tushunchasining falsafiy asoslari, tarixiy shakllanishi va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talqinlari tahlil qilinadi. Unda Sharq va G'arb falsafiy an'analridagi yondashuvlar qiyosiy o'rganilib, qadimgi davrdan boshlab islom falsafasi, ma'rifatparvarlik hamda zamonaviy global tafakkur doirasidagi qarashlar yoritiladi. Ma'naviy barkamollik shaxs kamoloti, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida talqin etiladi. Shuningdek, globallashuv va axborotlashuv sharoitida ushbu tushunchaning mazmuniy o'zgarishlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari barkamol shaxsni shakllantirish masalalarini ilmiy asosda tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy barkamollik, falsafiy asoslar, tarixiy taraqqiyot, shaxs kamoloti, axloqiy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat, zamonaviy interpretatsiyalar, global tafakkur.

### SPIRITUAL MATURITY: PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS, HISTORICAL DEVELOPMENT, AND CONTEMPORARY INTERPRETATIONS

Annotation

This article analyzes the philosophical foundations of the concept of spiritual maturity, its historical formation, and its modern socio-philosophical interpretations. It comparatively examines approaches found in Eastern and Western philosophical traditions, covering ideas from ancient philosophy through Islamic philosophy, the Enlightenment period, and contemporary global thought. Spiritual maturity is interpreted as a complex phenomenon closely connected with personal development, moral integrity, and social responsibility. The study also explores the transformation of this concept under conditions of globalization and informatization. The research findings contribute to a scientific understanding of the processes involved in forming a well-developed individual in modern society.

**Key words:** Spiritual maturity, philosophical foundations, historical development, personal growth, moral integrity, social responsibility, contemporary interpretations, global thought.

### ДУХОВНАЯ ЗРЕЛОСТЬ: ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ, ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируются философские основы понятия духовной зрелости, процесс его исторического формирования и современные социально-философские интерпретации. В работе в сравнительном аспекте рассматриваются подходы к данной проблеме в восточной и западной философских традициях — от античных философских взглядов до исламской философии, эпохи Просвещения и концепций современного глобального мышления. Духовная зрелость трактуется как сложный феномен, тесно связанный с развитием личности, нравственной зрелостью и социальной ответственностью. Также раскрываются содержательные трансформации данного понятия в условиях глобализации и информатизации. Результаты исследования имеют важное теоретическое значение для научного осмысления духовно-просветительских процессов и формирования гармонично развитой личности в современном обществе.

**Ключевые слова:** Духовная зрелость, философские основы, историческое развитие, личностное развитие, нравственная зрелость, социальная ответственность, современные интерпретации, глобальное мышление.

**Kirish.** Ma'naviy barkamollik inson kamolotining murakkab va ko'p qatlamli hodisasi bo'lib, u nafaqat shaxsning axloqiy yetukligini, balki jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikning asosini ham tashkil etadi. Falsafiy jihatdan u insonning ontologik mohiyatiga — "kimligi" va "qanday yashashi lozimligi"ga berilgan amaliy javob bo'lib, bilish, qadriyat va faoliyat birligida shakllanadi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida bu tushuncha turli davrlarning ijtimoiy-madaniy paradigmalari bilan bog'liq holda o'zgarib kelgan. Sharq tafakkurida u "komil inson" g'oyasi orqali ifodalaniib, adolat, halollik, sabr, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar uyg'unligi sifatida talqin etilgan. Yangi davrda esa u milliy davlatchilik va modernizatsiya

jarayonlari bilan bog'lanib, jamiyatning strategik resursi sifatida qarala boshlandi. Bu yondashuvda ma'naviy yetuklik shaxsiy fazilatlar bilan birga ijtimoiy mas'uliyat mezoniga ham aylanadi.

Zamonaviy sharoitda ma'naviy barkamollik an'anaviy tarbiya vositalari bilangina emas, balki axborotlashgan jamiyatning murakkab kommunikativ muhitida shakllanmoqda. Raqamli makon, OAV va ta'lim texnologiyalari ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim, biroq ikki tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Shu bois bu jarayon ilmiy asoslangan va tizimli boshqariladigan yo'nalishda olib borilishi zarur.

Ma'naviy barkamollik uzluksiz ichki o'zlashtirish jarayoni bo'lib, unda vijdon, insonparvarlik, axloqiy me'yorlar va mehnatsevarlik o'zaro uyg'un tizim sifatida namoyon bo'ladi. Natijada shaxsda barqaror ma'naviy immunitet shakllanadi.

Shunday qilib, ma'naviy barkamollik o'tmish merosining oddiy takrori emas, balki tarixiy tajriba va zamonaviy tafakkur uyg'unligidan tug'iladigan ijodiy jarayondir. U shaxsni ijtimoiy mas'ul, tanqidiy fikrlovchi va bunyodkor subyektga aylantiradi hamda jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ma'naviy barkamollik zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi va madaniy taraqqiyot birligida talqin qilinadi. O'zbek falsafiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha faqat axloqiy me'yorlar yig'indisi emas, balki shaxsning ontologik mohiyati, ijtimoiy mas'uliyati va madaniy identifikatsiyasi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisadir. Axborot oqimlari kuchaygan sharoitda yoshlar ongiga raqamli muhit va ommaviy madaniyat ta'siri kuchayib, ma'naviy immunitetni zaiflashtiruvchi omil sifatida talqin qilinmoqda. Shu bilan birga, sharqona axloqiy imperativlar, milliy qadriyatlar va an'anaviy tarbiya institutlari globallashuv sharoitida ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim resurs sifatida baholanadi.

Tarixiy-falsafiy tadqiqotlar ma'naviy barkamollik g'oyasining chuqur ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Tasavvufiy tafakkurda insonning ichki poklanishi, nafsni jilovlash va komillikka intilish markaziy o'rin egallaydi. Jaloliddin Rumiy, Abdulqodir G'iyoniy va Mahdumi A'zam Kosoniy merosi shaxsning o'z "men"ini anglash jarayonini barkamollikning asosi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvlar zamonaviy konsepsiyalar bilan qiyoslanganda, mazmuniy vorislik va tarixiy uzluksizlik namoyon bo'ladi.

Zamonaviy talqinlarda ma'naviy barkamollik globallashuv va modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilinib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi markazga chiqadi. U jamiyat taraqqiyotining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholanadi. Metodologik jihatdan ushbu masala dialektik yondashuv, tarixiylik, tizimli va aksiologik tahlil asosida o'rganiladi. Dialektik metod an'ana va innovatsiya o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib bersa, tarixiylik yondashuvi tushunchaning mazmuniy evolyutsiyasini izohlash imkonini beradi.

Falsafiy genezis nuqtai nazaridan barkamollik qadimgi yunon va sharq tafakkuriga borib taqaladi. Aflotun va Arastu uni adolat, mo'tadillik va donolik uyg'unligi sifatida talqin qilganlar[1]. Abu Nasr Forobiy esa inson baxtini aql va fazilat birligida ko'radi: "Insonning baxti – aqlning kamoloti va fazilatlarining uyg'unligidir" [2]. Al-G'azzoliy barkamollikni nafsni poklash bilan bog'laydi[3], Alisher Navoiy esa uni ijtimoiy ezgulik mezoni sifatida talqin etadi[4].

Zamonaviy o'zbek falsafasida ma'naviy barkamollik ijtimoiy boshqaruv va davlat xizmati bilan bog'lanadi. M. Y. Mansurova uni boshqaruv madaniyatining poydevori sifatida ko'rsatib, rahbar ma'naviyatini vijdon, insonparvarlik va fidoyilik uyg'unligida izohlaydi[5]. X. A. Ochilov barkamollikni fuqarolik mas'uliyati va halollik bilan bog'laydi[6]. M. H. Rustamaliyev esa uni huquqiy ong va ma'naviy e'tiqod uyg'unligi sifatida talqin qilib, jamiyat barqarorligining aksiologik asosini ko'rsatadi[7]. B. E. Yuldashev barkamollikni rahbarlik madaniyatining eng yuksak bosqichi deb baholaydi[8].

Shunday qilib, ma'naviy barkamollik shaxsning ichki va tashqi dunyosi uyg'unligini ifodalovchi, tarixiy meros, ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy tafakkur birligida shakllanuvchi dinamik ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U shaxsni aql va vijdon

uyg'unligiga, jamiyatni esa barqarorlik va adolatga yetaklovchi ontologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari ma'naviy barkamollik tushunchasi insoniyat falsafiy tafakkurida tarixan markaziy o'rin tutganini va uning mazmuni davrlar o'tishi bilan ijtimoiy-madaniy sharoitlarga mos ravishda boyib borganini ko'rsatadi. Antik falsafada u kosmik tartib va aqlga muvofiq yashash bilan bog'langan bo'lsa, Sharq va islomiy tafakkurda ruhiy poklanish, axloqiy yetuklik va jamiyat manfaatiga xizmat qilish mezonlari orqali talqin etilgan. Zamonaviy yondashuvlarda esa ma'naviy barkamollik ichki kamolot bilan birga ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va axborot muhitida ongli tanlov qilish qobiliyati bilan bog'liq ko'p qirrali fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar ma'naviy barkamollik shaxs kamolotining faqat axloqiy yoki diniy jihati bilan cheklanmasdan, ontologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy mazmunni ham qamrab olishini ko'rsatdi. U insonning o'z "men"ini anglashidan boshlanib, jamiyat bilan uyg'unlikka erishishgacha davom etadigan uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda aql, vijdon, iroda va mas'uliyat birligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida esa ma'naviy barkamollik shaxsni axborot oqimlari ta'siridan himoya qiluvchi "ma'naviy immunitet" sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy o'zbek falsafiy tafakkurida ma'naviy barkamollik ijtimoiy boshqaruv va rahbarlik madaniyati bilan bog'lanib, barkamol shaxs va rahbar modeli jamiyat barqarorligi hamda ijtimoiy ishonch omili sifatida baholanmoqda. Umuman, tadqiqot ma'naviy barkamollikni tarixiy vorislik, zamonaviy ehtiyojlar va global jarayonlar uyg'unligida shakllanuvchi dinamik ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi hamda barkamol shaxsni shakllantirish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Ma'naviy barkamollik tushunchasi inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlaridan boshlab shakllanib, insonning o'zini anglash jarayoni, axloqiy me'yorlarni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishi hamda jamiyat bilan murakkab munosabatlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Antik falsafada u kosmik tartib va logosga mos yashash g'oyasi bilan asoslangan bo'lsa, o'rta asrlarda ilohiy haqiqatga yaqinlashish, nafsni tiyish va ruhiy poklanish mezonlari bilan talqin etilgan. Zamonaviy falsafada esa ma'naviy barkamollik metafizik yoki diniy kategoriya doirasidan chiqib, ijtimoiy, madaniy, axborot va texnologik jarayonlar bilan bog'liq ko'p qatlamli fenomen sifatida qaralmoqda.

G. Hegel ma'naviy kamolotni tarixiy jarayon sifatida talqin qilib, ruhning o'z-o'zini anglash darajasi jamiyat madaniy yuksalishiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi [9]. E. Fromm esa inson kamolotini "egallik qilish"dan "bo'lish" holatiga o'tish bilan bog'lab, texnik qudratdan ko'ra axloqiy va gumanistik salohiyatni ustun qo'yadi [10]. M. Kastels axborot oqimlari ongni shakllantiruvchi asosiy omilga aylanganini qayd etib, ma'naviy barkamollikni raqamli muhitda axloqiy immunitet va tanqidiy fikrlash bilan bog'laydi [11]. I. Kant esa inson qadriini burchni ongli ado etish bilan belgilaydi [13].

Sharq va islomiy tafakkurda ma'naviy barkamollik "komil inson" g'oyasi bilan uyg'un bo'lib, qalb pokligi va niyat to'g'riligiga urg'u beriladi. Al-G'azzoliy barkamollikni nafsni poklash bilan bog'laydi [12]. Bu qarashlar zamonaviy axborot ko'pligi sharoitida bilim va ma'naviyat o'rtasidagi tafavutni anglashga yordam beradi.

Zamonaviy falsafada (Habermas, Bauman, Sheler, Gusserl, Jonas, Fuko) ma'naviy barkamollik kommunikativ aql, qadriyatlar ierarxiyasi, mas'uliyat etikasi, refleksiv ong va o'z ustida ishlash amaliyotlari bilan bog'lanadi [14]. Bu yondashuvlar barkamollikni statik ideal emas, balki

o'zgaruvchan texnologik va ijtimoiy sharoitlarda shakllanuvchi dinamik jarayon sifatida ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamollik rahbarlik faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etib, boshqaruvni adolat, ishonch va mas'uliyatga tayangan ichki mexanizmga aylantiradi. Barkamol rahbar o'z faoliyatida vijdon, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtiradi; boshqaruvni hukmronlik emas, xizmat va ishonch jarayoni sifatida tushunadi.

Tadqiqot natijalari ma'naviy barkamollik insoniyat tafakkurida tarixan markaziy kategoriya bo'lib kelganini va uning mazmuni ijtimoiy-madaniy sharoitlarga mos ravishda boyib borganini ko'rsatadi. Antik davrda u aql va kosmik tartib bilan, Sharq va islom tafakkurida ruhiy poklanish va axloqiy

yetuklik bilan, zamonaviy yondashuvlarda esa ijtimoiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va axborot muhitida ongli tanlov bilan bog'lanadi.

Ma'naviy barkamollik shaxs kamolotining ontologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini birlashtiruvchi uzluksiz jarayon bo'lib, aql, vijdon, iroda va mas'uliyat birligiga asoslanadi. Zamonaviy sharoitda u shaxsning axloqiy immuniteti hamda jamiyat barqarorligi va adolatini ta'minlovchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ma'naviy barkamollikni tarixiy vorislik, zamonaviy ehtiyojlar va global jarayonlar uyg'unligida shakllanuvchi dinamik ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin qilish muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Политика. – Москва: Мысль, 1997. – С. 56–57.
2. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993. – B. 167–172.
3. G'azzoliy A. H. Ihyo ulumiddin. – Toshkent: Mavorounnahr, 2003. – B. 72.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. – B. 109.
5. Mansurova M. Y. Ijtimoiy boshqaruvning ma'naviy asoslari: falsafiy tahlil. – Buxoro: NDU, 2024. – B. 8–10.
6. Ochilov X. A. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma'naviy faolligini oshirish mexanizmlari. – Samarqand: SamDU, 2024. – B. 9–11.
7. Rustamaliyev M. H. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda davlat boshqaruvining ma'naviy-huquqiy tamoyillari. – Namangan: NamDU, 2025. – B. 10–11.
8. Yuldashev B. E. Zamonaviy rahbar ijtimoiy qiyo-fasini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Qarshi: QDU, 2022. – B. 13–15.
9. Гегель Г. История философии. Том 2. — Москва: Мысл, 1971. — с. 210–230.
10. Fromm E. To Have or To Be? — New York: Harper & Row, 1976. — 60–75-betlar.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell, 2010. — 395–420-betlar.
12. G'azzoliy A.H. Ihyo ulum ad-din. 1-jild. — Qohira: Dar al-Fikr, 2004. — 105–125-betlar.
13. Кант И. Критика практического разума. — Москва: Наука, 1988. — с. 80–100.
14. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. — Boston: Beacon Press, 1984. — 270–300-betlar.
15. Bauman Z. Liquid Modernity. — Cambridge: Polity Press, 2000. — 130–155-betlar.
16. Rumiy J. Masnaviy. 3-jild. — Tehron: Intishorot-e Amir Kabir, 2006. — 50–70-betlar.
17. Scheler M. Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik. — Halle: Niemeyer, 1916. — 200–230-betlar.
18. Husserl E. Die Krisis der europäischen Wissenschaften und die transzendente Phänomenologie. — Haag: Martinus Nijhoff, 1954. — 1–30-betlar.
19. Jonas H. Das Prinzip Verantwortung. — Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1979. — 30–55-betlar.
20. Foucault M. The Care of the Self. — New York: Pantheon Books, 1986. — 35–60-betlar.